



RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN EPIDEMIOLOGIYA, MIKROBIOLOGIYA, YUQUMLI VA  
PARAZITAR KASALLIKLAR ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING  
VIRUSOLOGIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

68 son B U Y R U Q

« 29 » 02 2024 y.

Toshkent sh.

**“Odob-ahloq komissiyasining tarkibi hamda  
mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni tartibga solish haqida”**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi “Davlat fuqarolik hizmatchilari tomonidan odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 595-sonli qarori alablaridan kelib chiqib, hodimlarning hizmat faoliyatida va hizmatdan tashqari holatlarda odob-ahloqini, jamoatchilik bilan munosabatlarda amaldagi qoidalarga rioya etishlarini, ularning kiyinish me‘yorlarini belgilash, shuningdek deontologik nuqtayi nazardan sog‘lom, ma‘naviy, ijtimoiy-psixologik muhitning barqarorligini ta‘minlash, kasbga nisbatan va o‘zaro hurmat munosabatlarini mustahkamlash maqsadida

**Buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi “Davlat fuqarolik hizmatchilari tomonidan odob-ahloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 595-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Odob-ahloq komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Komissiya deb yuritiladi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Odob-ahloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Xodimlarning odob-ahloq qoidalari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Komissiya raisi M.I.Rahmanovga:

Hodimlar orasida hizmat faoliyatlariga oid va hizmatdan tashqaridagi odob-ahloq, jamoatchilik bilan munosabatlarga doir qoidalariga rioya etilishi, ularning kiyinish me‘yorlari bilan tanishtirish, shuningdek deontologik nuqtayi nazardan sog‘lom, ma‘naviy, ijtimoiy-psixologik muhit barqarorligini ta‘minlash, kasbga nisbatan va o‘zaro hurmat munosabatlarini mustahkamlash yuzasidan muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib borilsin;

Hodimlar tomonidan odob-ahloq qoidalariga, hizmat faoliyatlariga oid va hizmatdan tashqaridagi odob-ahloq, jamoatchilik bilan munosabatlarga doir qoidalariga, kiyinish

me'yorlariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan hollarda ularning sabablarini aniqlab, ijobiy yechimi bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritib borilsin.

4. Bo'lim boshliqlari ichki mehnat tartib qoidalari va boshqa idoraviy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori talablariga muvofiqlashtirilishi ta'minlansin.

Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazorat Bosh shifokor L.N.Tuychiyev zimmasiga yuklatilsin.

**Direktor**

**E.I.Musabayev**

№	F.I.O.	Lavazimi
1	N.S. Abidova	Yordamchi
2	S.Z. Mirg'iyatova	Yordamchi
3	N.M. Maxamedova	1-Bo'lim mudiri
4	N.M. Kuchqarova	2-Bo'lim mudiri
5	D.E. Dursarova	4-Bo'lim mudiri
6	X.N. Musabayev	Yordamchi
7	O.A. Urutov	Yordamchi
8	X.X. Karimova	Klinik laboratoriya mudiri
9	X.X. Mirzajonova	TO'QO'XVI laboratoriya mudiri
10	I. Egamova	Shifokor
11	M.T. Yunusov	Xavfli bo'lim mudiri

Izoh: Zarurata ko'ra qo'shimcha ravishda komissiya tarkibiga mutaxassislar jalb qilish mumkin, agar xodimlar zimidan o'z yoki boshqa ishga o'tkazishda ularning o'rniga tayinlanadigan xodim komissiya a'zosi hisoblanadi.